

**BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA
O‘QIB HAMDA TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

Abdusamatova Umidaxon Komiljon qizi

Annotatsiya: *ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning matni o‘qib tushunish va tinglab tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishda e‘tibor qaratish zarur bo‘lgan asosiy jihatlar haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *matn tahlili, o‘qib tushunish, qayta hikoyalash, tinglab tushunish, ta‘lim sifati, xalqaro baholash.*

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta‘lim sifatini rivojlantirishga qaratilgan qator islohotlar jarayonida ta‘lim tizimiga bir nechta yangiliklar ham kirib kelmoqda. Xususan, o‘quvchilarning egallashi zarur bo‘lgan ko‘nikmalar soni ortib ularni rivojlantirish uchun foydalaniladigan yangidan yangi pedagogik texnologiyalarga zarurat tug‘ilmoqda. Bu jarayonda asosan ilg‘or xorij texnologiyalari hamda ta‘lim jarayonimizda amalda foydalanilayotgan ilg‘or va samarali pedagogik texnologiyalardan o‘rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida qo‘yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta‘lim sohasidagi yutuqlarni baho–lash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA-International Association for the Evaluation of Educational Achievement) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

O‘qish savodxonligining rivojlanishi har bir o‘quvchining o‘sib-ulg‘ayishi, ta‘lim olishi va kundalik hayotida muhim ahamiyat kasb etgani bois, o‘qish savodxonligini tadqiq etishda Ta‘lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) qariyb 60 yil mobaynida o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmalarini muntazam ravishda xalqaro miqyosda baholab, ularning o‘qib o‘rganishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishga harakat qilmoqda.[3, B.225]

Boshlang‘ich ta‘lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matni tushunish va anglash ko‘nikmasini shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Dunyo ta‘lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga, ularning fanlardan yaxshi o‘zlashtirishlariga alohida e‘tibor beriladi. Xususan, mamlakatimizda ham bu borada yaxshi o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktab

o'quvchilarining bilimini baholash, ta'lim sifatini oshirish maqsadida hukumatimiz tomonidan xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish belgilab qo'yildi.

“Matn (arabcha-yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst) – yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat; bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi”. [2, B.259] O'qish savodxonligini oshirish borasida ko'pchilik olimlar o'z fikrlarini keltirib o'tganlar. Xususan, rus olimasi Kovaleva Galina Sergeyevna boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini takomillashtirish yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirgan:

“- Axborot matnlarini o'qishga e'tiborini kuchaytirish (aniq shaklda bayon etilgan ma'lumotlar asosida oddiy xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantirish);

- Gender xilma-xillikni kamaytirish;

- Kompyuter bilan ishlashning navigatsion ko'nikmalarini rivojlantirish (masalan, klaviaturada yozish)”.

“Boshlang'ich ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va anglash ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishda eng, avvalo, o'quvchida matn tuzish ko'nikmasini shakllantirishimiz kerak. Birinchi sinfda ya'ni savod chiqarish davridanoq dastlab og'zaki so'ngra yozma tarzda matn tuzishni o'rgatish lozim. Bolalarga matn tuzishni o'rgatish ulardagi quyidagi sifatlarni takomillashtirishga yordam beradi:

- atrof muhit haqidagi tushunchalarning qay darajada shakllanganligini;

- fikr yuritish qobiliyatlarini,

- axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini;

- voqeylikka nisbatan mushohada yuritishni;

- munosabat bildirishni;

- voqea hodisa haqida xulosa chiqarishga.” [1, B.139]

Bunda bizga turli metodlar, didaktik o'yinlar, ko'rgazmali qurollar ham yordam beradi. Masalan, turli voqealar tasvirlangan rangli rasmlar juda katta qo'l keladi. O'qituvchi tomonidan o'qish darslarining mustahkamlash qismida yoki uyga vazifa sifatida har bir o'quvchiga alohida tarzda tayyorlangan suratlar beriladi.

Bunda o'quvchilar mustaqil ravishda hamda ota-onalarining ko'maklari yordamida rasmlarga mos ravishda matn tuzishadi. 1-sinfning birinchi yarim yilligida bu mashq og'zaki tarzda, keyinchalik yozma tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi. 2-, 3-, 4-sinflarda bolalar tomonidan tuziladigan matnlar soddadan murakkabroq ko'rinishga o'tib boradi. Ya'ni dastavval ikki, uch gapli matn tuzilgan bo'lsa, bolaning yoshi, fikr doirasi ortib borishiga qarab matndagi so'zlar va gaplar hajmi ham, sifati ham ortib boraveradi. Suratlariga qarab matn tuzish bolalarda dunyoqarashning o'sishiga, adabiyotga nisbatan muhabbatning ortishiga, so'z boyligining ko'payishiga, tuzgan matnlariga vao'qish

darslarida matnni tushinish hamda anglash ko'nikmalarini rivojlanishiga ulkan ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonda bolalarga ota-onalarning yordami juda muhim hisoblanadi. Suratga mos gaplarni bir-biriga ulab, moslab yozishda otaonalarimiz ko'makdosh bo'lishi lozim. O'quvchi matn tuzish jarayonida uni ongli tarzda tuzadi. Har bir so'zlarni o'z o'rnida qo'llay olish unga keyinchalik dars va darsdan tashqari holatlarda duch keladigan matnlarni tub ma'nosini tushunish hamda anglashga katta yordam beradi.

“Boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan ta'lim va tarbiya jarayoni bolalarning yoshi. intellektual imkoniyatlariga mos holda xulosa chiqarishga emas, fikr aytishga, munosabat bildirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Shu sabab boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi darsda masalani to'g'ri qo'ya bilish, o'quvchini qiziqitira olish, uning tuyg'ularini bezovta qila bilishdan iborat.” [4, B.6]

O'qish jarayonining boshlanishi, o'rtasi va oxirida o'quvchi til ko'nikmalarining, kognitiv va metakognitiv strategiyalar hamda mazmun shakllantirishda birlamchi bilim va ko'nikmalar majmuasidan foydalanadi. Bundan tashqari, o'qish muhitini yuzaga keltiradigan sharoit o'quvchini o'qishga rag'batlantirish va qiziqitirish orqali matn mazmunini shakllantirishga yordamlashadi, ammo sharoit matn mazmunini tushunish imkonini bermaydigan muayyan talablarni yuzaga keltirishi ham mumkin. O'quvchi o'zini o'rab turgan dunyo va o'zi haqida tasavvurga ega bo'lishi uchun u turli matnlarni o'qib o'rganishi mumkin. Har bir turdagi matn o'quvchiga matnni talqin qilishiga imkon beruvchi soddashakllar va qoidalardan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni o'zlari o'qigan hikoyalarni qayta hikoyalashga, do'stlariga so'zlab berishga undash, aksincha, matn va hikoyani tengdoshlaridan eshitgan o'quvchilar esa ulardan kelib chiqadigan savollarga javob berishlari va mazmunini tushuntirishlariga undash – o'quvchilarning tinglab hamda o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Qolaversa, ushbu ko'nikmalar o'quvchilarning chet tillarini o'zlashtirishlarida juda katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://primedu.jdpu.uz/index.php/primedu/article/download/1093/695/2624>
2. Pedagogika ensiklopediya II jild “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat milliy nashriyoti. Toshkent – 2015 yil
3. <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.97.91.031>
4. Husanboyeva Q. va boshq. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: “Innovatsiya-ziyo”, 2020.